



## Universal Xalqaro Ilmiy Jurnal

Jurnalning bosh sahifasi: <https://universaljurnal.uz>

Universal International Scientific Journal


e-ISSN: [3060-4540 \(online\)](https://doi.org/10.30604/2024.1.6)

Year: 2024 Issue: 1 Volume: 6

Published: 01.09.2024 <https://universaljurnal.uz>

### International indexes

GOOGLE SCHOLAR  
CROSSREF (OAK BAZA)  
ZENODO  
OPEN AIRE  
EUROPUB  
RESEARCHGATE (OAK BAZA)  
SJIF



Mirolimov Asadbek Odiljon o'g'li

Namangan davlat universiteti

Uzbekistan

[mirolimovasadbek797@gmail.com](mailto:mirolimovasadbek797@gmail.com)

### MARKERLARNING G'O'ZA GENOMLARINI O'RGANISHDAGI AHAMIYATI

**Annotatsiya:** Paxta yetishtiruvchi 90 ga yaqin davlatlarda asosan g'o'zaning 4 turi ekib o'stiriladi. *G. hirsutum* L. 90% dan ortiq hududlarga, *G. barbadense* L. 8%, *G. arboretum* L. va *G. herbaceum* L. 1% maydonlarni egallaydi. G'o'za seleksiyasining genetik taraqqiyoti uchun genetik xilma-xillikni oshirish muhim ahamiyatga egadir. Bu markerlar yordamida g'o'za seleksiyasida istiqbolli raqobatbardosh navlarni yaratish mumkin.

**Kalit so'zlar:** AQSH, Cotton Incorporated, BNL SSR, JESPR SSR, EST, Paleotropik – *Eugossipium*, Neotropik- Karpas, *Sturtia*.

**Abstract:** About 90 cotton-growing countries mainly grow 4 types of cotton. *G. hirsutum* L. covers more than 90% of the area, *G. barbadense* L. 8%, *G. arboretum* L. and *G. herbaceum* L. 1%. Increasing genetic diversity is important for the genetic development of cotton breeding. With the help of these markers, it is possible to create promising competitive varieties in cotton selection.

**Key words:** USA, Cotton Incorporated, BNL SSR, JESPR SSR, EST, Paleotropic - *Eugossipium*, Neotropic - Karpas, *Sturtia*.

**Аннотация:** коло 90 хлопкосеющих стран в основном выращивают 4 вида хлопка. *G. hirsutum* L. занимает более 90% площади, *G. barbadense* L. 8%, *G. arboretum* L. и *G. herbaceum* L. 1%. Увеличение генетического разнообразия важно для генетического развития селекции хлопка. С помощью этих маркеров можно создавать перспективные конкурентоспособные сорта в селекции хлопка.

**Ключевые слова:** США, Cotton Incorporated, BNL SSR, JESPR SSR, EST, Палеотропик — *Eugossipium*, Неотропик — Кarpас, Стурция.

**Language:** Uzbek

**Citation:** Mirolimov, A. (2024). THE SIGNIFICANCE OF MARKERS IN THE STUDY OF COTTON GENOMES. Universal International Scientific Journal, 1(6), 18–21. Retrieved from <https://universaljurnal.uz/index.php/jurnal/article/view/1101>

**Doi:** <https://doi.org/10.5281/zenodo.13880254>

Genetik xilma-xilliklarni molekulyar marker asosida o'rganish o'rganilayotgan germ\plazmani baholashga yordam beradi, bu kelajakda qimmatli genetik navlarni olishga manba bo'lib xizmat qiladi. Har bir SSR da 10 dan ortiq allel bo'lishi mumkin. Yuqori polimorfik SSRlar, ayniqsa, yaqin turlar o'rtasida gibridlanishni aniqlash va gen oqimini (introgressiyani) o'rganish uchun javob beradi. Ammo SSR markerlarining ham ba'zi kamchiliklari bo'lib, asosiy kamchiliklardan biri – past universallik va yomon o'tkazuvchanlik, yani har bir turga xos bo'lgan primerlarni ishlab chiqish kerak bo'ladi [1]. Paxta tolali o'simlik bo'lib, 180 million insonning daromad manbaiga aylangan[7]. Paxta jahon bozorida tola sifati bilan baholanadi[4]. Hozirda 84 ta mamlakatda o'stiriladi. Paxta tolasi ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki o'rinda Xitoy keyin Hindiston, AQSH, Pokiston va Braziliya turadi. Yurtimizda g'o'zaning 34 ta o'rta tolali va 2 ta ingichka tolali navi ekiladi [10].

Paxta yetishtiruvchi 90 ga yaqin davlatlarda asosan g'o'zaning 4 turi ekib o'stiriladi. *G. hirsutum* L. 90% dan ortiq hududlarga, *G. barbadense* L. 8%, *G. arboretum* L. va *G. herbaceum* L. 1% maydonlarni egallaydi [4]. 1-rasm. *G. Hirsutum* yuqori mahsuldorligi, erta pishishi va yetishtirishning oddiyligi bilan dunyoda keng tarqalgan. Shu bilan birga yetishtirish bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan *G. barbadense* turiga kam e'tibor qaratilyapti. Chunki bu turning hosildorligi *G. hirsutum* turiga nisbatan past. Ammo tolasi yuqori sifatli bo'lgani uchun hozirda bu xususiyatini *G. hirsutum* turidan yetishtirilgan navlarga o'tkazish maqsad qilingan. Tolaning sifati bilan bog'liq bo'lgan ko'plab allellar *G. barbadensedan* uzatiladi.



O'zining tabiiy tolasi, urug'idan olinadigan moy va ko'plab mahsulotlari bilan yuqori iqtisodiy ahamiyatga ega. Shuning uchun g'o'za molekulyar va klassik seleksiya tadqiqotlarida muhim ahamiyatga ega. Hozirda molekulyar markerlar bilan bu o'simlikning genetik farqlarini aniqlash eng muhim maqsadlardan biridir[7].

Bitta turning kariotipidagi xromosomalar xiliga genom deyiladi. Diploid xromosomal g'o'za turlarida genom  $n=13$  ga, tetraploid g'o'zalarda genom  $n=26$  ga teng[2]. Diploid g'o'zalarning genom hajmi taxminan 880 Mb dan 2500 Mb gacha o'zgarib turadi, tetraploid g'o'za genomining hajmi 3000 Mb[4]. Bitta genomga kiruvchi o'simliklar oson chatishadi. Duragaylar butunlay nasil beradi, lekin ikkinchi va undan keying avlodlarda ajralish bo'lmaydi. Har xil genomli turlar chatishmaydi yoki qiyinchilik bilan chatishadi. Bunday genomga kiruvchi turlarni chatishtirish natijasida olingan oz sonli duragaylar, odatda, qisman yoki butunlay naslsiz bo'ladi. Chatishtirish har doim ham xromosomalar soniga bog'liq bo'lmaydi. Xromosomalarning katta va kichikligi turlarning evolutsiya jarayonining farqini ifodalaydi.

G'ozaning barcha tur va formalari *Gossypium* turkumiga kiradi. Bu turkum juda qadimda paydo bo'lgan. Uning ajdodlari bo'lib shartli ravishda *Poleogossypium* deb atalgan turkumning bir necha turlari hisoblanadi. G'ozaning turkumi bundan taxminan 70-100 million yil oldin Bor davrining ikkinchi yarmida paydo bo'lgan. P.M. Jugovskiy g'ozaning kelib chiqishini Bor davriga bog'laydi. Yaxlit materik Pangeyaning parchalanishi tufayli u yerlarda iqlimi bir biridan farqlandi. Natijada g'oz turlari o'zgargan iqlimga moslasha boshladi. G'oz turi geografik alohidalanish natijasida uchta kenja turkumga ajralgan:

I. Osiyo-Afrika ( Paleotropik – Eugossypium)

II. Amerika ( Neotropik- Karpas)

III. Avstraliya (*Sturtia*)[2]

Zaysev madaniy g'ozalarni ikki asosiy guruhga – Eski va Yangi g'ozalariga ajratdi. Bular eng avvalo xromosomalar soni bilan farq qiladi. Bundan tashqari, u eski dunyo g'ozalarini Afrika va Hindiston kelib chiqqan *G. herbaceum* L. va *G. arboretum* L. kabi ikki asosiy guruhga, yangi dunyo g'ozalarini *G. hirsutum* L. va *G. barbadense* L. larga bo'ldi [3]. Mixaylova, Rajabli va boshqalarning fikricha, barcha diploid eski dunyo g'ozalarida xromosomalar yangi dunyo diploid eski dunyo g'ozalariga qaraganda yirik. Bunda Avstraliya turi *G. sturtia* ning xromosomasi eng yirik [8]. *Gossypium*ning 6 xil genomi aniqlangan (A, D, V, E, S, G, ). S genomiga avstraliya turlari, D genomga amerikaning barcha diploid yovvoyi g'ozalari, E genomga afrika yovvoyi g'ozalari, A genomiga ekiladigan eski dunyo g'ozalari, V genomiga afrika yovvoyi turlarining noma' lum guruhlari, AD genomiga ekiladigan 52 xromosomal amerika turlari kiradi. *Gossypium* 45-50 turdan iborat bo'lib, 40-45 diploid ( $2n=26$ ) A-G va K deb nomlangan sakkizta sitogenetik guruhlarda joylashgan va 5 allotetraploid ( $2n=52$ )[8] AD deb nomlangan bitta guruhda joylashgan. Tetraploid A genomining afrika o'simligining D genom

guruhidagi resident o'simlik bilan gibridlanishi va poliploidizatsiyasi natijasida vujudga kelgan. Keyinchalik, genom guruhi hozircha besh tur bilan ifodalangan uchta alohida naslga ajralgan. Hosildor duragaylar hosil qilish qobiliyatiga ko'ra, g'oz genofondi birlamchi, ikkilamchi va uchlamchi deb tasniflanadi[9]. (1-jadval)

Turlararo duragaylar nasliligini oshirishning eng asosiy yo'li ularni kolxitsin bilan ishlov berishdan iboratdir. Bu modda yordamida xromosomalarni ikki hissa ortishiga ta'sir qilinadi. Uning natijasida ba'zan bo'linish paytida duk hosil bo'lmaydi, xromatidlarning hammasi bir qutbga yo'naladi.

1-jadval

P	$2n=52$ AADD	X	$2n=26$ AA
G	$n=26$ AD		$n=13$ A
F <sub>1</sub>		$2n=39$	
P	$2n=39$ kolxitsin	X	$2n=52$
G	$n=39$		$n=26$
F <sub>2</sub>		$2n=65$ Xromosomal amfidiploid	
P	$2n=39$ kolxitsin	X	$2n=26$
G	$n=39$		$n=13$
F <sub>2</sub>		$2n=52$ Xromosomal amfidiploid	

An'anaviy seleksiya bitta gen xususiyatini o'tkazishda samaradorlikni ko'rsatgan bo'lsa ham, u murakkab miqdoriy belgilarni tartibga soluvchi bir nechta genlarni maqsadli boshqarishda bir qancha to'siqlarga uchraydi. Bu usulda yangi navlarni yaratish ko'p mablag' va harakatlarni talab qiladi. Markerlar yordamida seleksiya naslchilik muddatini va resurslar va ko'p mehnatni kamaytirishga yordam beradi [5]. SSR markerlar genom evolutsiyasi va qiyosiy genomikani tahlil qilish, germoplazma resurslaridan samarali foydalanishda foydali ekanligi isbotlandi. BNL SSR, JESPR SSR, ESTga xos mikrosatellit markerlari va bakterial sun'iy xromosomalardan olingan SSRlar paxtada aniqlangan. Qo'shimcha SSR markerlari ishlab

chiqish davom etmoqda. Masalan, Cotton Incorporated kompaniyasining Paxta genetikasi va naslchilik, AQSH paxta tadqiqot jamiyati uchun qo‘shimcha SSR markerlari ishlab chiqishni qo‘llayapti. G‘o‘za seleksiyasining

genetik taraqqiyoti uchun genetik xilma-xillikni oshirish muhim ahamiyatga egadir. Bu markerlar yordamida g‘o‘za seleksiyasida istiqbolli raqobatbardosh navlarni yaratish mumkin [4].

## ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Peijun Zhang, Xiang Jia Min in Applied Plant Genomics and Biotechnology “Simple Sequence Repeat” Science Direct 2005 (KİTOB)
2. M. Ergashev, Sh Turabekov, T Kuliyeu “G‘o‘za genetikasi” uslubiy qo‘llanma Guliston 2015
3. G.R. Xolmurodova, I.M. Rasulov, S.T. Jo‘rayev, F.N. Torayev “G‘o‘za genetikasi, seleksiyasi va urug‘chiligi” Toshkent 2021
4. Fakhridin N kushanov, Ozod S Turaev, Dilrabo K Ernazarova, Bunyod M Gapparov, Barno B Oripova, Mukhlisa K Kudratova, Feruza U Rafieva, Ku vandik K Khalikov, Doston Sh Erjigitov, Mukhammad T Khidirov, Madina D Kholova, Naim N Khusenov, Roza S Amanboyeva, Sukumar Saha, John Z Yu, Ibromxim Y Abdurakhmonov “Genetic Diversity, QTL Mapping and Marker-Assisted Selection Technology in Cotton (Gossypium spp.)” Frontiers in plant science 16 December 2021 1,17 page
5. Mukhtor M. Darmonov, Abdusalom K. Makamov, Mirzakamol S. Ayubov, Naim N. Khusenov, Zabardast T Buriev, Shukhrat E. Shermatov, Ilkhom B. Salakhutdinov, Khurshida A. Ubaydullayeva, Jurabek K. Norbekov, Maftuna M. Kholmurodova, Sardor E. Narmatov, Ilyos S. Normamatov, Ibromxim Y. Abdurakhmonov “Development of Superior Fibre Quality Upland Cotton Cultivar Series “Ravnaq” Using Marker-Assisted Selection” ORIGINAL RESEARCH 24 May 2022